
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 3

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

БЕКПЎЛАТ УМУРҚУЛОВ
Бадиий нутқ – лингвистик тадқиқотлар манбаи 7

НЮБАР ХАКИМОВА
Традиционное врачевание или логманство,
концептуальные и практические направления 15

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Синтагматика согласных фонем в узбекском языке
(На материале финальных двучленных сочетаний) 18

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVICH
Teolingvistik g‘oyalarning onomasiologik tadqiqotlarda aks etishi 23

САМАНДАРОВ РУСТАМ ДЎСЁРОВИЧ
Синтактик деривация жараёни ва аппликатив модел 25

TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH
Xususiyat, hajm-o‘lchov va hid bildiruvchi
evfemik birliklarning lingvistik xususiyatlari 29

АЛИМАРДАНОВ ЭЛЁР ИЛХОМ ЎҒЛИ
Хоразм диалектал зонасидаги ўзбек ва туркман тиллари
контактларини ўрганишнинг назарий асослари 32

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
O‘zbek tilida lisoniy shaxsni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar 37

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar presuppozitsiyasi 41

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMRAQULOVNA
Zulfiya she’riyatida ayrim frazemalarning qo‘llanish xususiyatlari haqida 45

XUDAYBERGANOVA DILDORA KULMAMATOVNA
O‘zbek tilida zoonimlarning semantik-funksional tahlili
(Ogahiy asarlaridagi zoonimlar misolida) 49

М У Н Д А Р И Ж А

JO‘RAYEVA NASIBAXON G‘ANIYEVNA
Tarixiy asarlar leksikasida eskirgan so‘zlar tizimi 52

XAYDAROVA XURSHIDA
Takroriy taqlid so‘zlar klassifikatsiyasi
(Besh jildli o‘zbek tilining izohli lug‘ati asosida) 57

АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА ВАПАЕВА
Периоды формирования новейших
слов в узбекском и русском языках 61

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Адабиётшунослик терминларини ўзбекчалаштириш муаммолари 65

JABBOROV ESHNAZAR
Jahon ma’rifatchiligining sharqona tamoyillari 69

ҚУРОНОВ САЪДУЛЛО ДИЛМУРОДОВИЧ
Ўтиш даври романлари ва инсон концепцияси 71

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XUSUSIYAT, HAJM-O'LCHOV VA HID BILDIRUVCHI EVFEMIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Turdimurodov Sirojiddin Eshqobilovich,
Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Til egasining ya'ni, so'zlovchining tinglovchi(lar) bilan muloqot qobiliyati morfologik evfemizmlarni qo'llashda o'z aksini yaqqol ko'rsatadi. Ayniqsa, sifat turkumli evfemik ma'noli leksemalarning qo'llanilishida lisoniy bilim, zakovat va nutqiy malaka hamkorligi juda ham ahamiyatli hisoblanadi.

Evfemizatsiya, birinchidan, o'zlikni namoyon qilish vositasi bo'lish bilan birga, ikkinchidan, bir vaqtning o'zida, tinglovchida vujudga kelishi mumkin bo'lgan kommunikativ o'ng'aysizlikning oldini oladi[1]. Masalan, izohli lug'atlarda bosh so'z sifatida berilgan KO'R leksemasi o'rnida *ko'zi ojiz, qori*; pakana leksemasi o'rnida *past(roq) bo'yli*; novcha leksemasi o'rnida *baland bo'yli*; cho'loq leksemasi o'rnida *oqsab(roq) yuradigan (sifatdosh)*; kar leksemasi o'rnida *qulog'i og'ir(roq);* zo'rovon leksemasi o'rnida *bo'yni yo'g'on* ifodalarining qo'llanilishi fikrimizning dalilidir.

Metaforaning asosiy xususiyatlaridan hisoblangan tavsiflash va xarakterlash vazifasi sifat so'z turkumi bilan ifodalanishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Til hodisasi hisoblangan metaforaning tavsiflovchi metafora turi zamirida ma'lum darajada *nomlash/atash* intensiyasi mavjud. Masalan, *Bu "mish-mish"larning tarqalishiga mening boshim ochiqligi sabab bo'ldi* ("Oila va jamiyat" 1992, 2-yanv.)[2] misolida *boshi ochiq* turkumli evfemizmi o'zbek tilidagi *erga tegmagan, ersiz, tul* ifodalari o'rnida qo'llangan tavsiflovchi atamadir. Biroq erga tegmagan, ersiz, tul so'zlari tavsiflovchi va atovchi ifodalar bo'lganligi kabi ularning almashtiruvchilaridan biri bo'lgan *boshi ochiq* ifodasi ham avvalo, tasvirlash, qolaversa, nomlash vazifasini bajarmoqda. Masalan, *avvalambor, bu betamiz odamning, xudo miya o'rniga suyaksiz til, ilm o'rniga gap bergan bulbuligo'yoning balandparvoz gaplari, aravani quruq olib qochishlari g'ashiga tegdi* (O.Yoqubov), misolida *bulbuligo'yo* turkumli evfemizmi o'zbek tilidagi *mahmadona, laqqi* ifodalari o'rnida qo'llangan tavsiflovchi atamadir. Biroq *mahmadona, laqqi* so'zlari tavsiflovchi va atovchi ifodalar bo'lganligi kabi ularning almashtiruvchilari bo'lgan *bulbuligo'yo* ifodasi ham avvalo, tasvirlash, qolaversa, nomlash vazifasini bajarmoqda. Har qanday turkumli ifoda o'z qo'llanishining ibtidosida tavsiflash, xarakterlash vazifasini bajaradi. Lekin vaqt o'tishi bilan ifodaning shakl va mazmun yaxlitligi ijtimoiylashuvi natijasida nomlash vazifasi ustuvorlashib boradi. Metafora, xususan, evfemik metafora til taraqqiyotining muhim vositalaridan biridir. Ayniqsa, insonning ichki his-tuyg'ularini ifodalashda evfemik metaforalarning roli beqiyos. Turkumli evfemizmni, shuningdek, evfemik vositalar yordamidagi so'z o'yinining mazmun-mohiyatini idrok etish, shaxsning qaysi mental muhitga mansubligi, aqliy faoliyatiga ham bog'liq. Bu metaforaning borliqni bilish asoslaridan biri ekanligi bilan bog'lanib ketadi. Zero, metafora borliqni ifodalash va anglashning lisoniy-kognitiv usulidir[3].

Nutqimizda sifat turkumli evfemik ma'noli leksemalar ham ma'lum katta qismni tashkil etadi. Bularga masalan, kar o'rnida *qulog'i og'ir(roq)*; bo'g'oz o'rnida *og'iroyoq, homilador, ikkiqat, yukli*; ko'r o'rnida *ko'zi ojiz, qori*; novcha o'rnida *baland bo'yli*; xarob (qiyinchilikda qolgan, nochor) o'rnida *yupun*; semiz o'rnida *etli, bir qop et, gumbaz, mesh, meshkay, tulum*; tayini yo'q, betayin, uyatsiz, sharmanda leksemalari o'rnida *etaksiz*; odamxo'r, qonxo'r leksemalari o'rnida *etxo'r*; kambag'al o'rnida *bo'yni ingichka, qo'li kalta, yoqasi kir, muhtoj tabaqa, faqir*; moxov leksemasi o'rnida *buzilgan*; kasal o'rnida *betob, bemor*; nogiron o'rnida *uzurli, imkoniyati cheklangan*; erga tegmagan yoki erdan chiqqan leksemalari o'rnida *boshi ochiq*; ersiz leksemasi o'rnida *beva, boshi ochiq*; esi past, telba, tentak leksemalari o'rnida *devona*; taksikoz leksemasi o'rnida *boshi qorong'u*; aqli past, yetishmaydigan leksemalari o'rnida *bir qaynovi ichida*; sotqin o'rnida *quloq*(izohlanmagan); er ko'rmagan o'rnida *bokira, iffatli, sof, onasi o'pmagan*; tekinxo'r o'rnida *qo'liga ketmon ushlamagan*; nogiron, shol leksemalari

[1] Грайс Г. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1985, – С. 217.

[2] Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент: ФАН, 2006. – 48 б.

[3] Рустамова Д.А.Метафорик эвфемизмларнинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспектлари: Филол. фанлари. номз… дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 50-б.

o‘rnida *to‘shakka mixlangan*; erksiz o‘rnida *mazlum*; savodsiz o‘rnida *omi, avom*; ochko‘z, qurumsoq o‘rnida *o‘limtik*; qari, o‘rnida *keksa, yoshi ulug‘* kabi. Ushbu sifat so‘z turkumiga oid leksik birliklarning ko‘pchiligi izohli lug‘atlardan joy olgan va ba’zilari nutqiy holatlarda kuzatiladi. Izohli lug‘atlardan joy olgan ushbu leksik birliklarning ko‘pchiligi bosh so‘z shaklida ham berilganligini, ba’zilari esa bosh so‘z izohida ishora tarzida berilganligini kuzatish mumkin.

Sifat turkumli evfemik ma’noli birliklarni mazmunan: a) xususiyat bildiruvchi turkumli evfemik ma’noli leksemalar; b) hajm-o‘lchov bildiruvchi turkumli evfemik ma’noli leksemalar v) hid bildiruvchi turkumli evfemik ma’noli leksemalar kabi turlarga ajratib tahlil qilish evfemik ma’noli leksemalarning alohida xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi deb o‘ylaymiz. Sifatlarning boshqa ma’noviy turlari bilan bog‘liq evfemik ma’noli leksemalarni tadqiqimiz davomida uchratmadik[1].

Xususiyat bildiruvchi evfemik ma’noli leksemalar: ko‘r leksemasi o‘rnida *ko‘zi ojiz*, kar o‘rnida *qulog‘i og‘ir, qori; jinni leksemasi o‘rnida nodon;* uyatsiz, sharmanda leksemalari o‘rnida *etaksiz*; odamxo‘r, qonxo‘r leksemalari o‘rnida *etxo‘r*; axloqsiz o‘rnida y*engiltak*; ersiz, turmushga chiqmagan yoki erdan ajralgan birliklari o‘rnida *boshi ochiq*; bo‘g‘oz o‘rnida *og‘iroyoq, homilador, ikkiqat, yukli*; kambag‘al o‘rnida *oyoqyalang, bo‘yni ingichka, qo‘li kalta, yoqasi kir, muhtoj tabaqa, faqir*; moxov o‘rnida *buzilgan;* kasal, kasalmand leksemalari o‘rnida *betob, bemor, xasta*; nogiron o‘rnida *uzurli, imkoniyati cheklanganlar;* esi past, telba, tentak leksemasi o‘rnida *devona;* taksikoz o‘rnida *boshi qorong‘u*; aqli past, yetishmaydigan leksemalari o‘rnida *bir qaynovi ichida*; er ko‘rmagan birligi o‘rnida *bokira, iffatli, onasi o‘pmagan*; tekinxo‘r, yalqov, tanbal leksemalari o‘rnida *qo‘liga ketmon ushlamagan*; nogiron, shol o‘rnida *to‘shakka mixlangan*; erksiz, bechora leksemalari o‘rnida *mazlum;* savodsiz o‘rnida *omi, avom*; ochko‘z, qurumsoq leksemalari o‘rnida *o‘limtik*; jalab leksemasi o‘rnida *buzuq, fohisha, yengiltak, yengiloyoq, suyuq, suyug‘oyoq;* behayo, besharm birliklari o‘rnida *beti (yoki yuzi)ochiq*, *ibosiz*; qari o‘rnida *keksa, nafaqaxo‘r, yoshi ulug‘; y*etim o‘rnida *sag‘ir, hech kimi yo‘q*; nochor, ko‘rimsiz o‘rnida *faqirona;* aybdor, gunohkor leksemalari o‘rnida *tili qisiq, dumi qisiq*, *tili kalta, og‘zi uyatli, yuzi shuvut*; shilqim o‘rnida y*elim*; jinni o‘rnida *nodon* kabilarni misol tariqasida keltirsh mumkin. Masalan, o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida *suyuq* leksemasi bosh so‘z sifatida berilgan bo‘lib, 1 Oqish va o‘zi ishg‘ol qilib turgan idish shaklini olish xususiyatiga ega bo‘lgan ma’nosini anglatishi qayd etilgan. Suyuq jism. Suyuq modda. Suyuq yoqilg‘i kabi o‘rinlarda o‘z ma’nosida qo‘llanishi qayd etilgan. Keyingi oltinchi (ko‘chma) ma’nosida fahsh yo‘liga kirgan, buzuq ma’nosida ishlatilishiga doir quyidagi misol keltirilgan: – *[Umar] Ko‘p yurdi, ko‘p topdi, topganini sovurdi. Albatta, u pullar suyuq ayollar yo‘liga ketdi*. Sh.Xolmirzaev, Bodom qishda gulladi[2]. Keltirilgan gap tarkibida *suyuq ayollar* birikmasidagi *suyuq* so‘zi mana shunday xususiyatga ega bo‘lgan ba’zi ayollarning xususiyatlarini anglatgan holda o‘xshatish asosida sifat turkumli evfemik ma’noli leksema vazifasini bajarib kelmoqda. Bu kabi misollardan aybdor, gunohkor leksemalari bosh so‘z shaklida izohlangan va ikkala (aybdor, gunohkor) so‘z izohida ham bir-biriga ishora qilingan o‘rinlarni kuzatamiz. Biz misol tariqasida keltirayotgan *tili qisiq, dumi qisiq*, *tili kalta, og‘zi uyatli, yuzi shuvut* kabi birikmalar esa o‘z tarkibidagi asosiy so‘z tarkibidagi so‘z bilan bog‘liq o‘rinlarda, masalan, *tili qisiq* iborasi izohli lug‘atlarda til bosh so‘zi tarkibida izohlangani va unda aybdor so‘ziga ishora qilingan o‘rinlarni kuzatdik. Unga ko‘ra, tili qisiq, hech narsa deya olmaydigan qarshi gapira olmaydigan holatli ma’nosini anglatishi aytib o‘tilgan. *U ochko‘zlar bundan keyin ham meni qo‘yishmaydi. Ular oldida har vaqt tilim qisiq*. Oybek. Tanlangan asarlar. U*ning tili qisiq bo‘lishiga sabab bo‘lgan gunohi shunday sodir bo‘lgan edi.* A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari[3]. Shuningdek, shuvut leksemasi bosh so‘z sifatida shunday izohlanadi: Qilmishi aybi tufayli boshqalarga ko‘rinaolmaydigan, uyatga qolgan, hijolatli kabi ma’nolarni anglatishi qayd etilgan. *Aldamchining yuzi shuvut. Rozi bo‘lmas undan el-yurt.* Maqol. – *Brigadirning yuzi shuvut bo‘lib, tili kalimaga kelmay turganda, Karim ko‘ziga chalindi*. Sh.Rashidov. Bo‘rondan kuchli. *Paxtaning mehnati zo‘r, himmatimiz undan zo‘r. Qondosh ellar oldida yuzi shuvut emasmiz.* G‘.G‘ulom[4]. Bunda so‘zlovchi aybdor, gunohkor so‘zlarini aytishdan qochishini, nutqini ta’sirchanroq ifodalashni maqsad qilganini anglash mumkin. Keltirilgan misollarimizda *tili qisiq* va *yuzi shuvut* iboralari insonlarning bir-birlari oldida aybdor, xuddi gunohkordek bo‘lib qolishlariga o‘xshatish asosida yuzaga kelmoqda. Ushbu o‘rindagi sifat turkumli evfemik ma’noli leksema o‘z vazifasini, ya’ni nutqni yanada ta’sirchan shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Hajm-o‘lchov bildiruvchi evfemik ma’noli birliklar: semiz o‘rnida *etli, to‘la, bir qop et, gumbaz*; oriq (shevada ***arriq***) leksemasi o‘rnida *eti suyagiga yopishgan, ozg‘in(roq)dan kelgan* kabilarni misol qilib

[1] Турдимуродов С. Ўзбек тилининг изоҳли луғатларида эвфемик маънолар талқини: Филол.фан. фал. док. (PhD) дисс... – Термиз. 2022. – Б.102-112.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, 3-том. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006-2008. – 599 б.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, 4-том. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006-2008. – 92 б.

[4] Yuqoridagi asar. – B. 606.

keltirishimiz mumkin. Hajm o‘lchov bildiruvchi evfemik evfemik ma’noli leksemalar xususiyat bildiruvchi evfemik ma’noli leksemalarga nisbatan kamchilikni tashkil etmoqda. Sifatlarning boshqa ma’noviy turlari bilan bog‘liq yazaga keladigan evfemik ma’noli leksemalarni uchratmadik. Fikrimizni SEMIZ so‘zi o‘rnida qo‘llaniluvchi birliklar bilan davom ettiramiz. Masalan, **to‘la** so‘zining izohida 1 Butun hajmi sig‘imi egallangan band bo‘lgan ma’nolarini anglatib kelmoqda. Keyingi to‘rtinchi ma’nosida esa *jussasi yoki biror a’zosi bo‘liq, etli, semiz* kabi izohlar keltirilgan. Buni dalillovchi misol ham ko‘rsatib keladi. *O‘rta bo‘yli to‘la, lekin keng yuzining go‘shtlari sarg‘ayib, salqib tushgan ellik sakkiz yoshlarda bo‘lgan kasalnamo xotin asta-sekin yurib kelaverdi*. Oybek, Tanlangan asarlar. GUMBAZ [*f.* – qubba, ravoq] 1 Qubba shaklidagi tom; qubbu taxlitdagi narsa. Sirk gumbazi. 2 *ko‘chma* Beso‘naqay, katta, semiz odam haqida. *Tunov kuni xolamnikiga borgan edim, xolam... hamma gapni Homid cho‘chqaning qulog‘iga yetkazuvchi o‘z qizi Zaynab gumbaz bo‘lganini birma-bir aytib berdi*. A.Qodiriy, O‘tgan kunlar[1].

v) hid bildiruvchi turkumli evfemik ma’noli leksemalar xususiyat bildiruvchi, hajm-o‘lchov bildiruvchi turkumli evfemik ma’noli leksemalarga nisbatan kam qo‘llaniladi. Masalan, sassiq so‘zini aytish, undan nutqda foydalanishdan qochish o‘rinlarida bunday evfemik ma’noli leksemalar yuzaga keladi. Uning o‘rnida yoqimsiz hid, ob-havo buzilmoq kabi birliklardan foydalaniladi. *Bugun ertalab omborxonaga tushganimda u yerdan yoqimsiz hid kelayotgan edi. Ertalab mehmonxonaning eshigini ochsam xonaning ob-havosi buzilgan edi (so‘zlashuvdan).* Bu kabi evfemalarning qo‘llanilishi bevosita nutqiy jarayonda yuzaga keladi[2].

Evfemik ma’noli leksemaning qo‘llanilishida so‘z turkumlarining o‘rni haqida shunday fikr bildirish mumkin: **a)** qo‘pol, uyatli, noo‘rin qo‘llaniluvchi birlik qaysi so‘z turkumiga tegishli bo‘lsa, uning o‘rnida qo‘llaniluvchi evfemik ma’noli leksema shu so‘z turkumiga tegishli bo‘ladi; masalan, ilon, qizamiq so‘zlari ot so‘z turkumiga doir bo‘lsa, uning o‘rnida qo‘llaniluvchi arg‘amchi, gul evfemik ma’noli leksemalari ham ot so‘z turkumi bilan ifodalangan. Yana bir misol bo‘g‘oz, semiz so‘zlari sifat so‘z turkumiga oid bo‘lsa, uning o‘rnida qo‘llaniluvchi *homilador, ikkiqat, etli* leksemalari ham sifat so‘z turkumiga tegishli ma’no anglatmoqda. Bu holat pora bermoq, tug‘moq fe’l so‘z turkumiga oid bo‘lsa, uning o‘rnida ko‘chma ma’noda qo‘llaniluvchi uzatmoq, qutilmoq, dunyoga keltirmoq ham shu so‘z turkumi ya’ni, fe’lga oid bo‘ladi; **b)** qo‘pol, uyatli, noo‘rin birlik qaysi so‘z turkumiga tegishli bo‘lsa, uning o‘rnida qo‘llaniluvchi evfemik ma’noli leksema boshqa so‘z turkumida ifodalanishi mumkin: masalan, nogiron sifat so‘z turkumiga doir leksema uning o‘rnida qo‘llaniluvchi *uzurli, imkoniyati cheklangan* evfemik ma’noli leksemalaridan *imkoniyati cheklangan* fe’l (sifatdosh) bilan ifodalanmoqda.

Sifat turkumli evfemik ma’noli birliklarning tarkibiy qismini yasalish jihatdan 3 turga bo‘lib o‘rganish mumkin. Bular: sodda (tub va yasama), qo‘shma va frazeologik sifat turkumli evfemik ma’noli birliklardir.

Sifat turkumli evfemik ma’noli sodda birliklar nutqimizda qo‘pol, uyatli, noo‘rin hisoblangan sodda sifatlarni tavsiflash va xarakterlashda, shuningdek, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatni yumshatib ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, so‘zlovchining yuqori saviyadagi nutqiy madaniyati, insonparvarlik xislatlariga egaligidan darak beradi. Masalan, qari leksemasi o‘rnida uning almashtiruvchisi bo‘lgan keksa, yoshi ulug‘ sifat evfemik ma’noli birligi yoshi ulug‘ kishiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nopisandlik mazmunini hosil qilmaslik uchun ishlatishini aytib o‘tishimiz mumkin. *Quyosh endi tig‘ yoya boshlagan salqin sabohda Qorabuloq qishlog‘idan biri keksa, biri yosh – ikki otliq chiqib kelaverdi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona t.o.[3]. Ushbu keltirilgan misolda ishtirok etgan **keksa** evfemasi sodda (tub) tuzilishiga ega. Bundan tashqari o‘z va ko‘chma ma’nolarida evfemik vosita vazifasini bajaruvchi *yupun, avom, mazlum, bokira* evfemalari o‘z ma’nolari orqali, *“yelim”, “suyuq”* kabilar esa ko‘chma ma’nolari orqali hosil bo‘lgan sodda tub ko‘rinishidagi sifat turkumli evfemik ma’noli leksemalar hisoblanadi. Shuningdek, o‘z va ko‘chma ma’nolarida evfemik vosita vazifasini bajaruvchi betob, bemor, faqirona, ibosiz, etli kabi evfemalari o‘z ma’nolari orqali, “yukli”, “etaksiz” kabi sodda yasama evfemalar esa ko‘chma ma’nolari orqali hosil bo‘lgan sodda yasama ko‘rinishdagi sifat turkumli evfemik ma’noli leksemalar hisoblanadi.

Yuqoridagi evfemik birliklarni tuzilishi jihatdan tahlilga tortadigan bo‘lsak, sodda (sodda tub va sodda yasama) va qo‘shma tuzilishga ega sifat evfemizmlarni uchratish mumkin. Bunda asosan -li va -siz kabi yasovchi qo‘shimchalar eng faol yasovchi qo‘shimchalar hisoblanadi.

Qo‘shma tuzilishli sifat evfemik birliklarni sifat+ot (og‘iroyoq, suyug‘oyoq), son+ot (ikkiqat) ko‘rinishlarida uchratish mumkin.

O‘zbek tili va uning lug’at boyligida ko‘plab sifat turkumiga oid evfemik ma’noli leksemalar mavjud. Til

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик, 1-том. – М.: Рус тили, 1981. – 198 б.

[2] Турдимуродов С. Ўзбек тилининг изоҳли луғатларида эвфемик маънолар талқини: Филол.фан. фал. док. (PhD) дисс... –Термиз. 2022. –Б.102-112.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик,2-том. – Тошкент:ЎзМЭ, 2006-2008. – 343 б.

va nutqda ijodiy va obrazli tafakkur mahsulini ifodalash so‘z ma’nolarining ko‘chimi orqali ham yuzaga keladi. Bunday evfemizmlar tilimizdagi nozik va farqli xususiyatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Resume: In the article, opinions are expressed about the types of meaning of euphemistic units of the Uzbek adjective group, such as characteristic, volume-measurement and smell, and some of their linguistic features.

Резюме: В статье высказаны мнения о типах значения эвфемистических единиц узбекской группы прилагательных, таких как характеристика, объемность и запах, а также некоторых их языковых особенностях.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ХОРАЗМ ДИАЛЕКТАЛ ЗОНАСИДАГИ ЎЗБЕК ВА ТУРКМАН ТИЛЛАРИ КОНТАКТЛАРИНИ ЎРГАНИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Алимарданов Элёр Илхом ўғли,
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети таянч докторанти

Ўзбек тилли массивнинг диалектал зоналарга ажратилиши А.Жўраев томонидан амалга оширилган бўлиб, у ўзбеклар сўзлашувчи 11 та диалектал зонани ва 7 та азонал ҳудудларни қайд этади. Олим Хоразм диалектал зонаси таркибига Хоразм вилояти, Жанубий қорақалпоқ туманлари (Тўрткўл, Элликқалъа, Беруний, Амударё), Тошҳовуз вилояти (Туркманистон) ҳудудларини киритади ҳамда ўзбек тили ўғуз ва қипчоқ шеваларининг ўзаро таъсири, оралиқ шевалар, шунингдек, зонанинг жанубий-ғарбий қисмида ўзбек ва туркман тиллари, шимолий, шимолий-шарқий ва шимолий-ғарбий қисмларида ўзбек ва қорақалпоқ тиллари ҳамда ўзбек ва қозоқ тилларининг ўзаро алоқалари, яъни контактлари мавжудлигини ёзади[1].

Хоразм диалектал зонасида олим қайд этганидек, ўзбек-туркман, ўзбек-қорақалпоқ, ўзбек-қозоқ тиллари контактлари юзага чиқади. Олим диалектал зоналарни умумий тарзда қайд этаркан, Хоразм диалектал зонасининг жанубий-ғарбий қисмида, яъни Туркманистон билан туташ чегара қисмларида ўзбек-туркман контакт жараёни рўй беришини айтади ва диалектал зонада қозоқ тилли тил ороллари мавжудлигини таъкидлайди. Умуман олганда, А.Жўраев қайд этганидек, ўзбек-туркман контактлари Хоразм диалектал зонасининг нафақат жанубий-ғарбий қисмида, балки диалектал зонанинг марказий ҳудудларида ҳам амалга ошади.

Ўрганишларимиз давомида маълум бўлдики, туркман тилли аҳоли зонанинг чегарадош жанубий (Тошҳовуз вилояти), жанубий-ғарбий (Амударё тумани), жанубий-шарқий (Тупроққалъа тумани Саримой, Нукус йўли маҳаллалари) қисмларида, шунингдек, марказий (Тўрткўл тумани) қисмларида истиқомат қилади ва мазкур ҳудудларда гетероген ареаллар сифатида ўзбек-туркман тиллари контакти амалга ошади.

Ареал лингвистикада контакт тушунчаси икки тил ва шевалар туташган ҳудудларда тил ва шеваларнинг бир-бирига ўзаро алоқасини билдиради ҳамда таъсир натижасида икки тил ёки шевада бир-бирига ўхшаш “ўзлашмалар” юзага келади. Масалан, диалектал зонанинг аксар тур-

[1] Джураев А. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 68.